



Muxayyoxon ASHUROVA,
Andijon davlat chet tillari instituti doktranti
E-mail: mohinabonu9414@mail.ru

F.f.f.d., dots. D.N.Satimova taqrizi asosida

CONCEPTS, ORIGIN, DIFFERENCE AND PRINCIPLES OF FORMAL AND INFORMAL TEXT AND SPEECH

Annotation

This article discusses the concepts of text and speech, their origin, formal and informal text, as well as the main characteristics of speech. The differences between formal and informal text and speech and the principles of their use are also analyzed. Based on the findings of various scientific studies, with the help of examples of formal and informal text and speech concepts in English and Uzbek languages, various aspects and principles are compared and analyzed, and final conclusions are given.

Key words: Text, speech, formal style, informal style, communicative process, speech situation, pragmatic approach, immanent approach, representative approach.

ПОНЯТИЯ, ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗЛИЧИЕ И ПРИНЦИПЫ ФОРМАЛЬНОГО И НЕФОРМАЛЬНОГО ТЕКСТА И РЕЧИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятия текст и речь, их происхождение, формальный и неофициальный текст, а также основные характеристики речи. Также анализируются различия формального и неформального текста и речи и принципы их использования. На основе выводов различных научных исследований, с помощью примеров формальных и неформальных текстовых и речевых концепций в английском и узбекском языках сравниваются и анализируются различные аспекты и принципы, а также даются окончательные выводы.

Ключевые слова: Текст, речь, формальный стиль, неформальный стиль, коммуникативный процесс, речевая ситуация, прагматический подход, имманентный подход, репрезентативный подход.

RASMIY VA NORASMIY MATN VA NUTQ TUSHUNCHALARI, GENEZISI, FARQI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada matn va nutq tushunchalari, ularning kelib chiqishi, rasmiy va norasmiy matn hamda nutqning asosiy xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy matn va nutq o'rtasidagi farqlar va ularning qo'llanilish tamoyillari tahlil qilinadi. Turli ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalariga asoslanib, ingliz va o'zbek tillarida rasmiy va norasmiy matn va nutq tushunchalarining misollar yordamida bir-biridan farqli jihatlari va tamoyillari qiyosiy-chog'ishtirma tahlil etilib yakuniy xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Matn, nutq, rasmiy uslub, norasmiy uslub, kommunikatsiya jarayoni, nutqiy vaziyat, pragmatik munosabat, immanent yondashuv, reprezentativ yondashuv.

Kirish. Tadqiqotchilar o'zlarining faoliyat sohaslariga ko'ra kommunikatsiya jarayonida tilning fonetik, leksik, grammatik, frazeologik kabi vositalarini tanlash va ularni qo'llashda bir-birlaridan ma'lum darajada farqlanadilar. Umumxalq tili doirasidagi lingvistik vositalarning bunday tanlab olinishi va qo'llanilishidagi xilma-xillik nutqning shakllarini turli xil aspektlarda tadqiq etish paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funksional uslub deb ataladi. Funksional uslub deganda, tildan farq qiladigan alohida narsa tushunilmaydi, balki ma'lum bir adabiy til tuzilmasi doirasida ko'rib chiqiladigan, o'ziga xos xususiyatlari va xizmat ko'rsatish ko'lamini bilan o'zaro farq qiluvchi yordamchi tizim tushuniladi [12].

Matn va nutq, xususan, og'zaki va yozma kommunikatsiya usullarini o'rganishda rasmiy va norasmiy uslub tushunchalari alohida o'rin tutadi. Bu ikki uslubdagi matn va nutq o'zaro muloqotda muhim ro'l o'ynaydi va ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va qo'llanilish tamoyillari mavjud. Rasmiy uslub ko'pincha jiddiy va qat'iy kontekstlarda, masalan, ilmiy ishlar, rasmiy yig'ilishlar va hujjatlarda qo'llaniladi. Norasmiy uslub esa kundalik muloqotda, do'stlar va oila doirasi orqali namoyon bo'ladi.

Metodlar. Ushbu maqolada o'rganish obyekti va tushunchalarini tavsiflash uchun tavsifiy, ularni turli guruhlariga ajratish uchun tasnifiy, shuningdek, qiyosiy va chog'ishtirma metodlaridan ham foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda matn va nutq tushunchalari o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, so'nggi yillarda bir qancha tilshunos va olimlar tomonidan yanada chuqurroq tadqiq etilmoqda. Jumladan, jahon tilshunosligida I.R.Galperin [8], A.Greymas, P.Giro, S.Todorov[1] va boshqa

olimlar matn va nutq borasida izlanishlar olib bordi. O'zbek tilshunosligida ham M.T.Irisqulov [1], N.Mahmudov, A.Rafiyev, I. Yo'ldoshev [3], L. Raupova[4], Sh.Safarov[5], A. Madvaliyev[7] kabi qator tilshunoslar ushbu soha rivojiga o'z hissarini qo'shdi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab tilshunoslik fanida burilish ro'y berdi. Tilshunoslik bu vaqtga kelib, til birliklari bo'lmish fonema, morfema, leksema (so'z), gaplarni o'rganishni gapdan kattaroq birliklarga bog'lab o'rganish zarurligini qayd etdi. Ularni mazkur fanda sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs va matn atamalarini bilan atashdi. Sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs tushunchalari turli tilshunoslar ishlarida turlicha ta'riflansa ham, biz ularni birlashtirib, bir mavzu bilan bog'langan gap yoki gaplar yig'indisi, deb umumlashtirishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda tilning eng katta birligi matn deb topildi. Shuni qayd etish kerakki, matn bir butun birlik sifatida o'rganish rus tilshunoslari tomonidan XX asrning 30-yillarida boshlangan edi. Ular o'z asarlarida matnning o'ziga xos xususiyatlari borligini, tilning boshqa birliklaridan o'zining mayl xususiyatlari, shaxs ma'nosini ifodalashi, matndagi shaxs ma'nosi bilan muallif shaxsi orasidagi bog'liqlik, uzviylik borligini isbotlashga ko'p kuch sarflashdi. Boshqa xorijiy mamlakatlar olimlari bu masalaga e'tiborni birmuncha keyinroq qaratdilar.

Matnning ta'rifi masalasiga kelsak, hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo'q. Matnning ta'rifi matn ustida ishlayotgan olimning tilshunoslik sohasining qaysi yo'nalishida (ya'ni fonetika-fonologiya, leksikologiya, sintaksis, semantika, generativ sem antika va hokazo) ishlashiga bog'liq. Masalan, A.Greymas matn (diskurs)ni gaplarga bo'linadigan butunlik bo'lsada, gaplarni bir-biriga bog'lanib kelishining natijasi emas, deb ta'kidlaydi. Bundan matn

birlamchi, dastlab matn yaratiladi, keyin esa tahlilchilar uni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarga ajratishadi, degan ma'no kelib chiqadi [1].

P.Giro fikricha, matn yopiq, o'zaro bog'langan birliklar butunligi, tuzilishi bo'lib, bu butunlikni tashkil etuvchi ishoralar stilistik taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib, yagona tizimni tashkil qiladi.

S.Todorovning fikricha, har qanday matn jarayon bo'lib, sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Matnlarning aniq gaplardan tashkil topishi - uning jarayon ekanini tasdiqlaydi. Matnning tashkil etuvchi qismlar orasidagi o'zaro bog'lanish uning sintaktik xususiyatini va, nihoyat, matnning mazmuni - uning semantikasini belgilaydi.

N.Enkvist ham matnning uch lingvistik parametrini mavzu (Topic), fokus (Focus) va bog'lanish (Linkage)ni aniqladi. Mavzu - matnning asosiy mazmuni, fokus - matnning tashkil etuvchi birlik (so'z, so'z birikmasi, gap va hokazo), bog'lanish esa matnning tashkil etuvchi qismlari orasidagi bog'lanish vositalaridir [1].

O'zbek tilining izohli lug'atida "matn" so'zi quyidagicha ta'riflanadi:

1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik a sari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz as osiy qismi [12].

Matn (lotincha: textus — mato; birikma) — ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma-ketligi.

"Matn" tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo'g'rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondashuv esa, matnning tashqi voqelik haqidagi ma'lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko'rib chiqishni anglatadi [11].

Ma'lumki, matnning xizmat vazifasi ancha keng. "Davlat tilida ish yuritish" kitobida bu haqida quyidagilar bayon qilingan: "Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik matn hisoblanadi" [3].

Lingvistikada "matn" termini nafaqat yozma, balki, og'zaki nutq namunalari ham qo'llaniladi. I. R. Galperin matn xususiyatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Matn - to'liqlikka ega bo'lgan, yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan, adabiy qayta ishlangan, nom(sarlavha) va bir qator maxsus bo'linmalardan iborat, turli xil turdagi leksik, grammatik, mantiqiy, stilistik bog'lanishlar bilan birlashtirilgan, ma'lum bir maqsadlilik va pragmatik munosabatga ega bo'lgan yozma xabardir" [8].

Tilshunoslikning yana bir muhim obyekti bo'lgan "nutq" tushunchasiga ham bir qator lingvistlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida "nutq" termining bir nechta ta'riflari keltirilgan: 1. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; s o'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayon ning hosilasi.

Misol uchun: Nutqi yomon. Bolaning nutqini o'stirmoq.

2. Amaldagi, so'zlashuv jarayonidagi til. 3. Tilning aloqa-aralashuv maqsadi va sharoitiga qarab lisoniy vositalardan muvofiq'ini tanlab ishlatish bilan farqlanuvchi turi, uslubi. Poetik nutq. Badiiy nutq. Og'zaki nutq.

4. Jamoat oldida aytiladigan, o'qiladigan gap, va'z.

Otashin nutq. Hayajonli nutq. Notiqning nutqi. Nutq so'zlamog.

Nutqqa tayyorlanmoq [13].

Abduvahob Mavdaliyevning ta'rifiga ko'ra, nutq— tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng karakterli

ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.



1-rasm


Muhokama va natijalar. Matnlarni yaratilishi maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Bu masala taniqli rus tilshunosi Y.V. Rojdestvenskiy tomonidan atroflicha yoritilgan. Matn to'rtta katta guruh: og'zaki, yozma (qo'lyozma), bosma va ommaviy kommunikatsiyaga ajratiladi (1-rasm. Matn turlari). Bu matnlarni o'z navbatida bir qancha turlarga ajraladi. Og'zaki matn monolog-dialog matn (suhbat), ovozlar (mish-mishlar); folklor turlariga bo'linadi [1].

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutq faoliyati kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki tarzda va yozma tarzda. Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz [3].

Hayotning turli sohalarini, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi usublari o'zaro farqlanadi; so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub [3].

Nutq rasmiy va norasmiy usublarga bo'linadi. Yozma nutqning so'zlashuv, badiiy, publitsistik usublari nutq norasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bu usublarda nutq egasi erkin harakat qiladi. Nutqdan maqsad va uning kimga mo'ljallanganligiga qarab nutq egasi til birliklaridan istaganicha foydalana oladi. Masalan, so'zlashuv nutqida so'zlovchining adabiy yoki sheva unsurlaridan, ilmiy terminlardan foydalanishini, jumalarning to'liq yoki noto'liq bo'lishini, imo-ishora vositalarini qay tarzda qo'llashini hech kim nazorat qilmaydi va unga baho berib o'tirmaydi. So'zlovchi faqat nutq sharoiti, nutq vaziyati va hamsuhbatning kimligidan kelib chiqqan holda o'zini o'zi nazorat qiladi. Badiiy va publitsistik uslub nutqi haqida ham shunday deiyish mumkin.

2-rasm



L.Raupovanning fikriga ko'ra rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubdagi nutq rasmiy nutq hisoblanadi (2-rasm. Nutq uslublari). Rasmiy nutq o'ratilgan qoidalar asosida tashkil etiladi. Ma'ruzalar, dokladlar og'zaki ko'rinishda bo'lganda ham, rasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bunday og'zaki nutq bilan yozma nutq orasida jumlar qurilishi, so'zlarning qo'llanishida farqlar kam seziladi. Rasmiy doiralarda norasmiy, norasmiy doiralarda rasmiy nutq tinglovchilar uchun noqulay holatni keltirib chiqaradi. Bu nutq madaniyatiga ega emaslik yoki unga rioya qilmaslik natijasida kelib chiqadi [4].

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliqlar, kasb-hunar so'zlari, atamalar, tayyor sintaklik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda; shunga ko'ra; ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ...ga ko'ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan: ...berilsin, ...taqdirlansin kabi), (on this basis; accordingly; we inform you that; taking into account..., the signatories, pursuant to..., based on ...;...with the condition:...to be given,...like to be destined) hujjat matning darak-hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi [3].

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid; qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. Iidoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar [3].

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda matn va nutq tushunchalarining ta'rifi borasida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo'q. Ushbu atamalarning ta'rifi matn va nutq ustida ishlayotgan olimning tilshunoslik sohasining qaysi yo'nalishida ishlashiga ko'ra bir-biridan farqlanishi mumkin. Tilshunos olimlarning ta'riflariga tayangan holatda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

Matn – lingvistik jarayon bo'lib, umumiy izchillik va ketma-ketlik asosida joylashtirilgan gaplardan tashkil topgan, to'liqlikka ega bo'lgan, ma'lum voqelik haqida ma'lumot beradigan, leksik, grammatik, mantiqiy va stilistik bog'lanishlar bilan birlashtirilgan, aniq bir maqsadlilik va pragmatik munosabatga ega bo'lgan yozma yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjatdir.

Nutq – insonlar tomonidan muayyan til jamoasida qabul qilingan til birliklari va materiallaridan foydalangan holda fikr va hissiyotlarni ifodalash, ma'lumotlarni almashish, insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, og'zaki va yozma ravishda namoyon bo'ladigan vosita hisoblanadi.

Matnlar uslubiga ko'ra rasmiy va norasmiy turlarga bo'linadi:

Rasmiy matnlar – rasmiy hujjatlar yoki ilmiy maqola va kitoblarda, odatda qonunlar, qarorlar, hujjatlar, shartnomalar va boshqa rasmiy hujjatlarda ishlatiladi. Norasmiy matn esa rasmiy bo'lmagan, odatda kundalik suhbatlarda, ijtimoiy tarmoqlardagi blog postlari, maqolalar, fikrlar yoki norasmiy intervyularda qo'llaniladi. Rasmiy matnlar qonuniy va rasmiy belgilar sifatida tan olingan, hukumatlar yoki tashkilotlar va mas'ul shaxslar tomonidan yaratiladi va o'zgarishsiz qabul qilinadi. Norasmiy matnlar mualliflar tomonidan yaratiladi va o'zgarishlarga osonlik bilan uchrashi mumkin bo'ladi.

Nutq ham matn singari rasmiy va norasmiy uslublariga ega. Norasmiy uslubda nutq egasi erkin harakat qiladi, nutqning maqsadi va uning kimga mo'ljallanganligiga qarab til vositalaridan istaganicha foydalana oladi. Rasmiy nutq esa o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etiladi. Ma'ruzalar, dokladlar og'zaki ko'rinishda bo'lganda ham, rasmiy nutq hisoblanadi. Shuning uchun bunday og'zaki nutq bilan yozma nutq orasida jumlar qurilishi, so'zlarning qo'llanishida farqlar kam seziladi.

ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. – 264b.
2. Jo'rayev T. Hozirgi o'zbek adabiy tilida epistolyar janrning til va uslubiy xususiyatlari. nomzodlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 1994. – 136b.
3. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2004. – 96b.
4. Raupova L. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2019. – 138b.
5. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 320b.
6. Suyarova A. O'zbek tilida ish yuritish. – Namangan, 2018. – 60b.
7. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Ё. Одилов. Давлат тилида иш юритиш. – Тошкент, 2020. – 528б.
8. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. — М.: Наука, 1981. — 144с.
9. Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуби таракқиёти. – Тошкент, 2020. – 95б.
10. Internet saytlari
11. Abdurahob Mavdaliyev <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nutq-uz/> (murojaat sanasi 7.05.2204)
12. Elektron resurs: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Matn> (murojaat sanasi 6.05.2024)
13. Elektron resurs: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Uslub> (murojaat sanasi 7.05.2024)
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. <https://izoh.uz/uz/word/matn> (murojaat sanasi 6.05.2024)
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. <https://izoh.uz/uz/word/nutq> (murojaat sanasi 7.05.2024)